

Fan: TO`SB

4-Taqdimot

**Mavzu: O`zbekiston tuproqlari tasnifi.
Avtomorf, tog` oldi va tog`lardagi tuproqlar.**

Reja:

- 1. O`zbekiston tuproqlari tasnifi.**
- 2. Chu`l zonasi avtomorf sur-qung`ir tuproqlar.**
- 3. O`zbekistonning tog` oldi va tog`lardagi tuproqlari.**

Uzbekistonning tekislik qismi cho'l zonasiga mansub. Cho'lda iqlim xususi-yatlariga kura tuproq hosil bo'lish ja-rayoni ancha suyet kechadi va vaqt omili muhim rolb o'ynaydi. Bu yerda tuproq tiplarining o'ziga xos tomonlari yer yuzasi ayrim qismlarining yoshiga bog'liq. Qad. paleogen va neogen jinslari ustida sur-qo'ng'ir, yosh to'rtlamchi davr yuzalarida taqir va taqirli tuproqlar vujudga kelgan.

Uzbekistoining tekislik qismidagi tuprokdari genetik va tasnifi jihatidan tog' oldi va tog' osti tuproqlaridan farq qiladi.

Tog'larda xarorat pastroq, yog'in esa ko'p; o'simlik guruhlari ham farq qiladi. Bo'z tuproq tipchalari tog' etagi tekisliklarida, tog' oldi va past tog'larda tarqalgan. O'rtacha balandlikdagi tog' mintaqasi jigarrang va qo'ng'ir tog'-o'rmon tuproqlari bilan, baland tog' tepalari och qo'ng'ir, o'tloqi-dasht tuproqlari bilan qoplangan.

O‘zbekiston tuproqlarining, ayniqsa, cho‘l sur-qo‘ng‘ir, taqir, cho‘l qumli tuproqlarning gumus mikdori juda kam (yuqori qatlamida 1% chamasida). Bo‘z tuproqlarda ham gumus mikdori oz, le-kin cho‘l zonasining tuproqlariga nis-batan biroz ko‘proq (1,5—2%). Sug‘orilganda, ayniqsa, o‘g‘itlanganda tuproqning unumdorligi keskin oshadi. Sug‘oriladigan tuproqlarda namlik, organik moddalarning qo‘shilishi va parchalani-shi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shunga ko‘ra sug‘oriladigan tuproqlar mustaqil tuproq tipi sifatida ajratiladi. Sug‘oriladigan tuproqlarning quyidagi tiplari mavjud: cho‘l zonasining o‘tloqi-voha va botqoqi-voha tuproqlari; bo‘z tuproqli mintaqaning taqir-voha, bo‘z tuproq-voha, o‘tloqi-voha va botqoqi-voha tuproqlari. O‘zbekiston hududi Turon tuproq-iqlim provintsiyasi (fatsiyasi)ga mansub. Bu provintsiya uchun maxsus gidrotermik rejim, biologik siklning alohida davrlari orasilagi keskin farq xosdir. Bunda o‘simlikning rivojlanishi va b. biologik jarayonlarning yuqori darajadagi faolligi nisbiy tinim fazasi bilan almashinib turadi.

Tekisliklar tuproqlari. Cho‘l zonasi avtomorf sur-qo‘ng‘ir tuproqlar b-n qoplangan. Bu tuproqlar qoldiq plato-lar, qad. Ustyurt platosi yoyilma konus-lari, Qizilqum va b. yerlarda rivojlangan. Tuproq qatlamining 18—25 sm chu-qurligida gips kristallari va suvda eruvchi tuzlar bor. Tuproqning yuqori qatlamida gumus miqdori 0,2—0,8%.

Cho‘l qum tuproqlari Qizilqum va b. qumli cho‘llarda keng tarqalgan.

Yuqori qatlami zich emas, ba'zi joylarda yupqa qatlam hosil qiladi. Yuza qatlamining qalinligi qariyb 5 sm. Bu qatlamda xarorat yoz kunlari 70—80° gacha ko'tariladi va sutka davomida keskin o'zgarib turadi.

qumning yuza qatlamini himoya vazifasini o'tab, quyi qatlamdagi namni saqlab turadi. Cho'l qum tuproqlarida gumus miqdori juda kam — 0,2—0,5% dan oshmaydi. Cho'l qum tuprokdari mexanik tarkibining xususiyati shundan iboratki, bu tuproqlarning tarkibida mayda chang (0,25—0,05 mm) va yirik chang (0,05—0,01 mm) fraktsiyalari ko'p. Bu tuprokdarda deyarli sho'rlanish bo'lmaydi.

Taqir tuproqlar - Uzbekistonning cho'l qismida, Amudaryo, Qashqadaryo, Sherobodare va boshqa darelarning qadimiy allyuvial tekisliklarida, Zarafshon va Surxondaryo vodiylarida uchraydi. Har xil darajada sho'rlangan. Tarkibida karbonatlar miqdori ko'p (8—10%). Gumus 0,3—0.8%. Sug'oriladigan taqir tuproqdagi mavjud agroirrigatsion qavat dehqonchilik agrotexnikasi, yerga solingan mahalliy o'g'it, shuningdek, suvning loyqalik darajasiga qarab 30—40 sm dan 1-2 m gacha qalinlikda bo'ladi.

Agroirrigatsion qavat rangi, mexanik tarkibi, qovushqoqligi va kimyoviy xossalari (sh.k.) mavjud. Tuzlarning eng ko‘p qismi tuproqning yuqori qatlamida bo‘ladi. Ular sizot suvlarning ko‘tarilib bug‘-laiishi natijasida to‘planadi. Sho‘rxok tuproqlar morfologik kurinishi jihatidai qatqaloq, mayin va qora bo‘ladi. Sho‘rxok tuproqlarning meliorativ holati yaxshilangach, ekin ekish mumkin.

Tog'lardagi tuproqlar. Uzskistoiniig tog' oldi va tog'laridagi tuproqlarning genetik xilma-xilligi umumiy geografik qonuniyatga bo'ysunadi. Joyning mutlaq balandligi ortib borgan sari yer yuzasining bo'laklarga bo'linishi, odatda, kuchayadi, havo t-rasining reji-mi yumshab, yog'in miqdori ortadi, o'sim-lik qoplami xam chala cho'l efemerlari-dan quruq dashtga xos o'tlar, archazor-siyrak daraxtli o'rmon, o'rmon, o'tloqi-dasht va dasht o'simliklariga qadar nav-batlanib boradi. Mavjud landshaft mintaqalarining har biri tuproq tar-kibi va tuproq qoplaminig o'ziga xos tuzilishi b-n bir-biridan farq qiladi.

Vertikal mintaqalardagi tuproqlar 3 tuproq-iqlim miptaqasiga bo‘linadi: bo‘z tuproq, o‘rta tog‘ jigarrang tuproq va baland tog‘ och-qung‘ir o‘tloqi-dasht tuproqlari. Bo‘z tuproqtrning quyi chegarasi dengiz sathidan 250—400 m balandlikda. Bu tuproqlar 900—1600 m balandlikda tog‘ jigarrang tuproqtari bilan almashinadi.

Boʻz tuproqlartogʻlarda oʻziga xos tuproq ti pi ni hosil qilgan. Efemer yoki quruq dasht oʻsimliklariping barq urib oʻsishi natijasida tuproqda chim qatlami vujudga kelgan va organik moddalar toʻplangan. Boʻz tuproqlar morfologiyasi va kimyoviy tarkibiga koʻra 3xil: och tusli, tipik (oddiy) va toʻqtus-li boʻladi. Boʻz tuproqlarda gumus chimli qavatida 1-4% miqdorida; oziq moddalar yetarli, fizik xossalari yaxshi. Gumusli qavati (50—60 sm) sur rangli. Sugʻorish natijasida 1,5—2 m gacha ag-roirrigaiion qatlam hosil boʻlgan.

Qizg'ish tusli tuproqlar

O'zbekistonning tog' va tog' oldi mintaqalarida keng tarqalgan uchlamchi davr qizil rangli neogen tuproq hosil qiluvchi jinslarda rivojlangan bo'lib, ularning aksariyati og'ir mexanik tarkibga ega, juda zichlashgan va ancha ekstremal rejimni kelgirib chiqarali, bu esa tuproq hosil bo'lishida va unumdorligida aks etgan. Bu tuproq-iqlim sharoitida shakllangan tuproqlar profilining qizg'ish-qo'ng'ir tusliligi, yirik chang va loyqa fraktsiyalari ko'p bo'lgan holda mexanik tarkibining og'ir-ligi, gumus (1-1,2%) va oziq moddalar (RK) miqdorining ozligi, karbonatliligi, profilining zichlanganligi, g'ovakligi, M δ va suv singdiruv-chanligining pastligi va o'simliklar o'zlashtira oladigan namlikning kam

Tuproq resurslari. Uzbekistan yer fondidan q.x.da turli-tuman maqsadlar-da foydalaniladi. Respublika umumiy quruqlik maydoni (qariyb 40 mln. ga)-ning 5-6 mln. ga dehqonchilikda foydalaniladi. Bu maydon sug'oriladigan va lalmikor yerlardan iborat. Qolgan yerlar, asosan, yaylov va qisman tog' o'rmon-zorlari bilan band.

Sug'oriladigan yerlar 4,2 mln. ga dan iborat, shundan 1,6 mln. ga cho'l zonasi-da, qolgan qismi bo'z tuproqni mintaqada. Avtomorf tuproqli maydonlar yirik daryolarning o'zlashirilgan vodiya va deltalari, shuningdek, tog' etagidagi tekisliklar (maye, Mirzacho'l)-dan iborat. Sug'orish natijasida bu yerlarda grunt suvlari ko'tarilgan.

Sug'oriladigan tuproqlar maydoni-ming yarmidan ko'prog'i (2,4 mln.ga) sho'r-langan va sho'rlanishga moyil, shu sababdan sho'rini muntazam yuvib turish va b. tadbirlarni ko'rish zarurati mavjud. Cho'l zonasi tekisliklaridagi bar-cha sug'oriladigan tuproklar va tog' etagidagi qiyaligi kam tekisliklardagi (Mirzacho'l, qisman Qarshi cho'li) bo'z tuproqlarning bir qismi shunday tuproqlar sirasiga mansub.

Amudaryo deltasining qarib borayotgan qismidagi o'tloqi va o'tloqi-taqir tuproqlar 600 ming ga dan ziyod may-donni tashkil qiladi. Taqir tuproqlar va taqirlar — 2,3 mln. ga. Tog' jigarrang va o'rmon qo'ng'ir tuproqlar (1160 ming ga) o'rtacha balandlikdagi tog'larning past-baland tog'li rel'efli qismiga to'g'ri keladi. Bu joylarda respublikada tog' yon bag'irlaridagi sel va tuproq-ni eroziyadan asrovchi yagona o'rmon zonasi mavjud. Jigarrang tuproq zonasi-dan yuqorida och-qo'ng'ir o'lloqi-dasht baland tog' tuproq xillari tarqalgan. U joylar yozgi yaylov sifatida foydalaniladi.

Sugʻoriladigan tuproqlarning aksar qismi mexanik tarkibiga koʻra oʻrta va yen-gil qumoqli tuproqlardan iborat. Soz va ogʻir qumoqli mexanik tarkibli tuttroq-lar esa 22% dan koʻproqni tashkil etadi

Sugʻoriladigan tuproqlar Fargʻona vodiysi (900 ming ga), Zarafshon vodiysi (750 ming ga), Amudare quyi qismi (780 ming ga)da katta maydonlarni egallagap.

Lalmikor yerlar maydoni 6,6 mln. ga dan zisd. Ekin ekish uchun yetarli dara-jada namlikni saklovchi yerlardan foy-dalapilali. Lalmikor yerlarning nis-batan katta maydonlari Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Jizzax vilo-yatlarida joylashgan. Och boʻz tuproqli lalmikor yerlarning bir qismi sugʻorib ekiladi.

Choʻl yaylovlari Oʻzbekistonda eng katta maydon — 26,5 mln. ga ni tashkil qiladi, shundan 11 mln. ga boʻz-qoʻngʻir tuproqli, qariyb 13 mln. ga qumli yerlar va qumli tuproqlar. Qolgan qismi oʻtloqi -taqir, taqir tuproqlar va taqirli hamda shoʻrxoklardan iborat. Choʻl-yaylov joy-lardagi sugʻorishga yaroqli yalpi maydon qariyb 12 mln, ga.